



ZAMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA PRO LEVEL INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-METODIK ASOSLARI

Abdumalikova Go'zal Hamzayevna

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya sport universiteti

O'zbek va chet tillari kafedrası

katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18000029>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 15-dekabr 2025 yil

Nashr qilindi: 20-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

PRO level, ingliz tili o'qituvchisi, kasbiy kompetensiya, pedagogik yondashuv, raqamli ta'lim, kommunikativ metod.

ABSTRACT

Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimi sharoitida PRO level darajadagi ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilinadi. O'qituvchining lingvistik, kommunikativ, metodik hamda raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar, xalqaro standartlar va raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash mexanizmlari yoritiladi.

Bugungi globalashuv jarayonlari ta'lim tizimiga yangi talab va vazifalarni yuklamoqda. Xususan, ingliz tilining xalqaro muloqot tili sifatidagi o'rni ortib borayotgani ta'lim sifatini oshirish, o'qitish metodikasini yangilash hamda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, PRO level darajadagi ingliz tili o'qituvchilari ta'lim tizimida yetakchi subyekt sifatida maydonga chiqmoqda. PRO level o'qituvchi nafaqat yuqori darajadagi til bilimiga ega mutaxassis, balki pedagogik jarayonni samarali tashkil etuvchi, innovatsion texnologiyalarni qo'llay oluvchi hamda o'qituvchilarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga yo'naltira oluvchi professional pedagog hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu jihatlar ilmiy jihatdan yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta'lim tizimida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Tadqiqotlarda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi ta'lim sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi.

J. Harmer o'z tadqiqotlarida ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini til bilimlari, metodik mahorat va pedagogik refleksiya birligi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, yuqori darajadagi o'qituvchi o'quv jarayonini faqat bilim berish bilan cheklab qolmay, balki o'qituvchini faol muloqotga jalb etishi zarur [1]. Ushbu yondashuv PRO level o'qituvchilar faoliyati uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. J.C. Richards kommunikativ yondashuvni ingliz tilini o'qitishning yetakchi konsepsiyasi sifatida ko'rsatib, o'qituvchining kommunikativ va metodik kompetensiyasiga alohida urg'u beradi. Uning ta'kidlashicha, zamonaviy o'qituvchi real nutqiy vaziyatlarni modellashtira olishi va o'qituvchilarning

funksional til ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim [2]. Mazkur qarashlar maqolada ko'rib chiqilayotgan PRO level kompetensiyalar mazmuni bilan uzviy bog'liqdir.

CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) hujjatlarida o'qituvchining professional darajasi til bilish darajalari bilan bevosita bog'lanib, C1-C2 darajalar pedagogning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarining yuqori bosqichini ifodalaydi. Ushbu hujjatda o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishi va reflektiv faoliyati alohida ta'kidlanadi [3]. Bu esa PRO level o'qituvchilarni tayyorlash va rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarida ham chet tillarini o'qitish sifatini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur hujjatlarda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish zarurligi qayd etiladi [4].

J. Scrivener o'z tadqiqotlarida o'qituvchining metodik kompetensiyasini darsni rejalashtirish, mos metodlarni tanlash va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish qobiliyati bilan bog'laydi. Uning fikricha, yuqori darajadagi o'qituvchi o'quv jarayonida moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvni namoyon etishi lozim [5].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, PRO level ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi kompleks yondashuvni talab etadi. Xususan, lingvistik, kommunikativ, metodik va raqamli kompetensiyalar o'zaro uyg'unlashgan holda rivojlantirilgandagina ta'lim jarayonining yuqori samaradorligiga erishish mumkin.

PRO level ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tushunchasi va tarkibi

Pedagogik adabiyotlarda "kasbiy kompetensiya" tushunchasi o'qituvchining kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmui sifatida talqin etiladi. PRO level ingliz tili o'qituvchisi uchun ushbu kompetensiyalar quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

Lingvistik kompetensiya. Lingvistik kompetensiya ingliz tilining fonetik, grammatik, leksik va stilistik tizimini mukammal bilishni nazarda tutadi. PRO level o'qituvchi til birliklarini kontekstda tahlil qila olishi, akademik va kasbiy nutqda erkin foydalanishi lozim.

Kommunikativ kompetensiya. Kommunikativ kompetensiya o'qituvchining real nutqiy vaziyatlarda samarali muloqot olib borish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya o'quvchilarning nutq faolligini oshirish, interaktiv muhit yaratish va kommunikativ vazifalarni to'g'ri tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Metodik kompetensiya. Metodik kompetensiya dars jarayonini rejalashtirish, samarali metod va texnologiyalarni tanlash hamda ularni maqsadga muvofiq qo'llashni o'z ichiga oladi. PRO level o'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda darsni tashkil eta olishi zarur.

Raqamli kompetensiya. Raqamli kompetensiya axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, raqamli ta'lim resurslarini yaratish va ulardan samarali foydalanishni anglatadi. Bugungi kunda ushbu kompetensiya PRO level o'qituvchining ajralmas kasbiy sifati hisoblanadi.

Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar

Zamonaviy ta'lim sharoitida ingliz tilini o'qitishda an'anaviy yondashuvlardan ko'ra faol va kommunikativ metodlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, **Communicative**

Language Teaching (CLT) yondashuvi o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, tilni muloqot vositasi sifatida o'rganishga yo'naltiradi.

Task-Based Learning yondashuvi esa o'quvchilarni real hayotga yaqin vazifalar asosida til o'rganishga undaydi. Bu metod o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammo yechish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Project-Based Learning metodi PRO level o'qituvchidan yuqori darajadagi tashkilotchilik va metodik mahoratni talab etadi. Ushbu metod o'quvchilarning jamoada ishlash, tadqiqot olib borish va natijani taqdim etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Raqamli ta'lim texnologiyalarining PRO level o'qituvchi faoliyatidagi o'rni

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. PRO level ingliz tili o'qituvchisi quyidagi raqamli vositalardan samarali foydalanishi lozim:

- a) onlayn ta'lim platformalari (Google Classroom, Moodle);
- b) interaktiv baholash vositalari (Quizizz, Kahoot);
- c) masofaviy ta'lim va video konferensiya texnologiyalari;
- d) sun'iy intellektga asoslangan til o'rganish dasturlari.

Ushbu vositalar dars samaradorligini oshirish, individual yondashuvni ta'minlash va o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

PRO level ingliz tili o'qituvchisining uzluksiz kasbiy rivojlanishi

Uzluksiz kasbiy rivojlanish PRO level o'qituvchining professional faoliyatida muhim o'rin tutadi. Xalqaro sertifikatlar (CEFR C1-C2, IELTS, TESOL, CELTA), malaka oshirish kurslari va ilmiy seminarlar o'qituvchining kasbiy salohiyatini oshiradi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanish, maqolalar chop etish va ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish o'qituvchining metodik tafakkurini rivojlantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, PRO level ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Innovatsion pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va uzluksiz kasbiy rivojlanish asosida faoliyat olib boruvchi o'qituvchi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga muhim hissa qo'shadi. Ushbu jarayon ingliz tilini o'qitishni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2015.
2. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge University Press, 2017.
3. CEFR. Common European Framework of Reference for Languages. – Council of Europe, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chet tillarini rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari.
5. Scrivener J. Learning Teaching. – Oxford University Press, 2019.